

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 130 (919), 2023-yil 4-iyul, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI YXHT DIIHB MISSIYASI RAHBARINI QABUL QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi (YXHT DIIHB) missiyasi rahbari Ursula Gachek bilan 3-iyul kuni bo‘lib o‘tgan uchrashuvda bo‘ljak prezidentlik sayloviga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish masalalari ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari YXHT bilan konstruktiv muvoqot, faol almashinuvlar, ochiq va samarali hamkorlik yo‘liga qo‘yilganini katta mamnuniat bilan qayd etdi.

Byuro ekspertlari milliy saylov tizimini modernizatsiya qilishda, shu jumladan, mamlakatimiz Saylov kodeksini ishlab chiqishda ishtirok etgan.

YXHT DIIHB missiyasi joriy yil 30-aprel kuni bo‘lib o‘tgan Konstitutsiya bo‘yicha referendumni kuzatishda ham qatnashgan edi.

Uchrashuvda umumxalq ovoz berish jarayoni-ni xalqaro standartlarga muvofiq o‘tkazishning turli jihatlarini yuzasidan atroflicha fikr almashildi.

DIIHB missiyasi rahbari Ursula Gachek Yangi

O‘zbekistondagi ortga qaytmas demokratik yangilanishlar va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonlarini qo‘llab-quvvatladi. Mamlakatimizda shaffof va adolatli saylov o‘tkazish borasida ko‘riylayotgan chora-tadbirlar qayd etildi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI SHHT SAMMITIDA ISHTIROK ETADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modining taklifiga binoan 4-iyul kuni Shanxay hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar rahbarlarining videoanjuman shaklida o‘tadigan navbatdagi majlisida ishtirok etadi.

Sammit kun tartibiga muvofiq, SHHT doirasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada mustahkamlash, tashkilot faoliyatini kengaytirish va takomillashtirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqiladi.

Uchrashuv yakunida SHHT davlatlari

rahbarlari tomonidan iqtisodiy hamkorlik, raqamli transformatsiya, mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash, madaniy-gumanitar soha va boshqa ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha bir qator qarorlar qabul qilinishi kutilmoqda.

O‘ZA

YANGI O‘ZBEKISTON RUHI

XALQ DIPLOMATIYASI — TASHQI SIYOSATNING MUHIM MODEL

O‘ZBEKISTONDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTINING XALQ DIPLOMATIYASI MARKAZI DIREKTORI QOBILJON SOBIROV BILAN SUHBAT

— Globallashuv davrida yashayapmiz. Mamlakatlar kelajagi o‘zaro bog‘liqlikda rivojlanish tendensiyalariga daxldor bo‘lib qolmoqda. Ekosiyosiy, geosiyosiy muhit tobora ziddiyatli tus olayotgan bir sharoitda bu jarayon tabiiy, albatta. Shunday makonda yashayotgan dunyo xalqlari bugun “yagona intilish” omillari-ga ehtiyoj sezayotgani ham bor

gap. Bu o‘z-o‘zidan mintaqaviy jipslikni talab qiladigan hodisalar bilan bog‘liq. Shu ma‘noda, SHHT makonida faoliyat yurituvchi Xalq diplomatiyasi markazlariga tabiiy ehtiyoj qay darajada edi va ularning hayotiy ma‘nosi qanday namoyon bo‘lmoqda?

— Bilasizmi, bugungi kunda xalqaro muammolarni hal etishda xalq diplomatiyasi tobora muhim

ahamiyat kasb etayotir. Aslida, xalq diplomatiyasini kichik xayrli harakatlardan siyosat, deiysh ham mumkin. Bunda asosiy e‘tibor davlat tuzilmalari va mansabdor shaxslarga emas, balki hamkorlikni kengaytirish imkoniyatiga ega jamoat tashkilotlariga qaratiladi. Mutaxassislar-ni ta‘kidlashicha, dunyoda global ziddiyat va qarama-qarshiliklar avj olayotgan bir pallada, aynan xalq

diplomatiyasi o‘z samimiyligi hamda xolisligi bilan ajralib turadi. Rasmiy diplomatiya vositalaridan farqli ravishda, xalq diplomatiyasi xalqlar o‘rtasida o‘zaro ishonch, hurmatni mustahkamlashga va do‘stlik aloqalarini tiklashga qodir. Muhimi, davlatlar va xalqlarning umumiy maqsad sari hamkorlik qilish niyati bo‘lsa, kifoya.

Davomi 4-betda

BIZ VA DUNYO


HINDISTONNING SHHT DOIRASIDAGI TASHABBUSLARI O‘ZBEKISTON BILAN O‘ZARO HAMOHANGDIR

HINDISTONNING YETAKCHI OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI O‘Z MAMLAKATINING SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTIDAGI RAISLIGI YAKUNLARINI SARHISOB QILMOQDA

Hindistonning yetakchi ommaviy axborot vositalari bu mamlakatning Shanxay hamkorlik tashkilotida (SHHT) nihoyasiga yetayotgan raisligi mavzusini yoritir ekan, Hindiston va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlarga alohida e‘tibor qaratmoqda.

“The Economic Times” gazetasi sharhlovchisi Dipanjan Chaudhuri Hindistonning SHHTga raisligi nihoyasiga yetayotgani, mazkur raislik Hindiston uchun ham, SHHT uchun ham tarixiy ahamiyatga egaligi haqida fikr yuritgan. Shu ma‘noda, gazeta O‘zbekistonning Dehli-dagi elchisi Dilshod Axatovning “Hindiston izchil rivojlanayotgan ushbu xalqaro tuzilmada birinchi mar-ta raislik qilmoqda va bu orqali SHHT doirasida yangi a‘zo davlatlar ishtirokida raislik doirasini boshlab berdi”, degan fikrlarini bayon etgan.

Davomi 2-betda



MUNOSABAT

FAXRLANDIK

Har qanday shaxsning salohiyati, mehnat-u xizmatlari va albatta, munosib taqdirlanishi jamiyat hayotida nihoyatda muhim ahamiyatga ega voqea hisoblanadi. Xususan, el-yurt mehri-ni qozongan insonga bo‘lgan yuksak e‘tibor o‘sha xalq vakillari qal-bida, shuurida davom etadi. Xalq oddiygina qilib, lekin chin qalbdan, hayajon-la, “Ayni munosib insonga berilibdi!” deya munosabat bildiradi, tasanno aytadi.

Davomi 2-betda

NUQTAYI NAZAR

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYA

mamlakatimizning rivojlanish yo‘li va inson huquqlari asosini belgilab berdi

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan izchil islohotlarda “Inson qadri uchun”, degan tamoyil ustuvor maqsad etib belgilangan. Bu yo‘lda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning qabul qilangani mamlakatimizning yangi rivojlanish davrini boshlab berdi. Zero, Bosh qonunimizda inson qadri, uning huquq va manfaatlarini kafolatlar bilan bog‘liq ko‘plab normalar o‘z aksini topganki, bu mamlakatimizning chinakam demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida jahon hamjamiyatidagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi.

Davomi 2-betda

KAMOLOT PILLAPOYASIDA



YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORLARI UCHUN YUKSAK E‘ZUZ-EHTIROM

Inson hayotidagi unutilmas lahzalarning eng esda qolarlisi va zavqlisi yoshlik xotiralari bilan bog‘liq. Yoshlik — bebaho boyluk, o‘z so‘zini aytish, iste‘dod va qobiliyatini ro‘yobga chiqarish orqali o‘zini dunyoga namoyon qilish imkoniyati.


Bugun yurtimizda hamma narsa o‘zgar-moqda.

Islohotlar nafasini eng ko‘p his qilgan ham aynan yangi O‘zbekiston bunyodkorlari — yosh yigit-qizlar, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Davomi 5-betda

“YALLA” — 50 YOSHDA

SHONLI YO‘L ZAHMATI



va shuhratli ijod zarqi

San‘at, xususan, musiqa san‘ati xalqning o‘zligini yaratishga, uning qiyofasini butun dunyoga yoyishga qodir kuch. Bu haqda gap ketganda, albatta, bastakor, ijrochi, xonanda, umuman, ushbu soha ustalari faoliyati, iste‘dodi bosh mavzuga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan, ilk o‘zbek milliy estrada guruhi sifatida e‘tirof etiladigan “Yalla” ansamblining faoliyati ortiqcha ta‘rifga muhtoj emas.

Davomi 6-betda

IJTIMOYIY TENGLIK VA XALQ HOKIMIYATCHILIGIGA ASOSLANGAN DEMOKRATIK BOSHQARUV

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan Prezidentlikka nomzod Saylovoldi dasturidagi asosiy g'oyalardan hisoblanadi



Mamlakatimizda muhim siyosiy jarayon — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga sanoqli kunlar qolmoqda. Hozir Prezidentlikka nomzodlar Saylovoldi dasturidagi maqsad hamda vazifalariga asoslanib, jamiyatimiz taraqqiyoti va kelajagi bilan bog'liq masalalar bo'yicha saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazmoqda. Xalq hokimiyatchiligi — demokratik ijtimoiy davlatni barpo etishning muhim sharti.



O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan Prezidentlikka ko'rsatilgan nomzod Ulug'bek Inoyatovning Saylovoldi dasturining VII yo'nalishi "Ijtimoiy tenglikka va xalq hokimiyatchiligiga asoslangan demokratik boshqaruv" deb nomlangani ham bejiz emas. Unda belgilangan maqsad va vazifalar aynan jamiyatimizda dolzarb masalalarga bag'ishlangani bilan ajralib turibdi.

Dasturda "Biz mamlakatda ijtimoiy tenglikka asoslangan xalq hokimiyatchiligi prinsipi mustahkamlash orqali demokratik ijtimoiy davlatni barpo etish tarafdorimiz", degan fikr ilgari suriladi. Xo'sh, xalq hokimiyatchiligi deganda nima tushuniladi? U qanday xususiyatlarga ega? Avvalo, xalq hokimiyatchiligi fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi bevosita va bilvosita ishtiroki demakdir. Uyushqoqlik, bir-birining fikrini eshitish, o'zaro hurmat va birdamlikda harakat qilish xalq hokimiyatchiligining muhim jihatlari.

Xalq hokimiyatchiligi — demokratiyaning mazmuni hamda ajralmas sharti. O'zbekiston Konstitutsiyasining II bobi ham aynan "Xalq hokimiyatchiligi" deb nomlanib, uni ro'yobga chiqarish bo'yicha muhim qoidalar mustahkamlab qo'yilgan.

Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 7-moddasi "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat berigan organlar tomonidagina amalga oshiriladi", degan qoida belgilangan.

O'zXDPdan nomzodning Saylovoldi dasturida ta'kidlanganidek, barcha insonlarning yoshi, jinsi, jismoniy imkoniyati, millati, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda faol ishtirok etishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish zarur.

Albatta, xalq hokimiyatchiligi prinsipi fuqarolarning jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda bevosita va o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqida ham namoyon bo'ladi.

Bosh qonunimizga muvofiq, bu o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish hamda davlat organlarini demokratik tarzda tashkil qilish, shuningdek, davlat organlari faoliyatini ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish hamda takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Xalq hokimiyatchiligi prinsipi bilan bevosita bog'liq ustuvor qoidalar mavjud bo'lib, ular davlat hokimiyati tizimida o'zaro tiyib turish hamda muvozanatni saqlash, ijtimoiy-siyosiy xilma-xillikni ta'minlash, muhim, inson manfaatlarining davlat manfaatlaridan ustuvorligini kafolatlashga xizmat qiladi.

Xalq hokimiyatchiligini jamiyatda qonun ustuvorligi va huquqiy madaniyat nechog'liq yuksak darajada ekanini ko'rsatuvchi o'ziga xos indikator ham deyaish mumkin. Agar kishilar o'z huquqlaridan to'liq foydalanishga intilmasa, eng oltin ham va mukammal qonunlar ham ularni demokratik muhitda yashashga o'rgata olmaydi.

Shu nuqtayi nazardan, biz mamlakatda ijtimoiy tenglikka asoslangan xalq hokimiyatchiligi prinsipi mustahkamlash orqali demokratik ijtimoiy davlatni barpo etish tarafdorimiz. Bu aholi uchun barcha, jum-

ladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining davlat, jamiyat hayoti, sud-huquq tizimida tenglik asosida ishtirok etishini kafolatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik jamiyati — inson huquqlarini ta'minlashning muhim kafolati

Dasturda "Fuqarolik jamiyati institutlari mamlakatda demokratiya, huquqiy davlat va shaxs erkinliklarini ta'minlashning muhim kafolati bo'lib xizmat qiladi. Biz mamlakatimizda kuchli fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish tarafdorimiz", degan fikr ilgari suriladi. Milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlashga qaratilgan kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga bosqichma-bosqich o'tish masalasi mamlakatimizda kechayotgan faol demokratik yangilanish va modernizatsiyalash jarayonlarining ajralmas qismi bo'lishi lozim.

Fuqarolik jamiyatida: — nodavlat, jamoat tashkilotlari, xususan, siyosiy partiyalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat tizimini mustahkamlashga, saylovchilarning, o'z a'zolarining va davlatning manfaatlarini uyg'unlashtirib, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishi;

— markazlashgan boshqaruv bilan xalq hokimiyatchiligining boshqa subyektlari o'rtasida ijtimoiy murosa, ahillik, bir-birini qo'llab-quvvatlash ta'minlanishi;

— inson manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun turishi, davlat organlari insonlarga xizmat qilishi;

— ma'muriy boshqaruvdan fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruviga o'tish muhimidir. Shu bois, nomzodimiz Saylovoldi dasturida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishini yanada kengaytirishni ham taklif etmoqda.

Fuqarolik jamiyati davlat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri boshqarilmaydigan fuqarolar, jamoat tashkilotlari va ko'ngillar uyushmalarining o'zaro samarali ijtimoiy aloqalari tizimidan tashkil topgani sababli bu institut o'ziga xos qonuniyatlar — tenglik, birdamlik, ochiqlik, o'zaro hurmat, ishonch asosida rivojlanadi.

Huquqiy davlatni fuqarolik jamiyati rivojlantirish natijasi, deb hisoblash mumkin. Huquqiy davlatchilikning shakllanish jarayoni, hech shubhasiz, asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich davom etib, fuqarolik jamiyati shakllanishi bilan birga uyg'unlashib boradi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy sohalarida yuz berayotgan o'zgarishlarga uyg'un ravishda fuqarolik jamiyati institutlari tobora rivojlanib bormoqchi lozim. Bu, bir tomondan, fuqarolarning siyosiy tafakkuri yuksalayotgani, ikkinchi tomondan, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyat ko'rsatadigan huquqiy makonning kengayib borishi bilan bog'liq.

Prezidentlikka nomzod Ulug'bek Inoyatov o'z Saylovoldi dasturida fuqarolik jamiyati va nodavlat institutlar faoliyatiga alohida e'tibor qaratayotgani shu omillarga muvofiqdir.

Nomzod ta'kidlayotganidek, fuqarolik jamiyati institutlari mamlakatda demokratiya, huquqiy davlat va shaxs erkinliklarini ta'minlashning muhim kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Dasturda nazarda tutilgan masalalardan yana biri davlat funksiyalarini bosqichma-bosqich fuqarolik jamiyati institutlariga berib borish orqali ularning ijtimoiy

faolligini oshirish, shu jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy sheriklik asosida xizmat ko'rsatishga o'tishdir.

Fuqarolik jamiyati institutlariga davlat funksiyalarini bosqichma-bosqich berib borish zahirida ijtimoiy masalalarni yanada samarali hal etish, bu jarayonda nodavlat institutlar faolligi va ta'sir kuchini oshirish g'oyasi mujassam. Bu, birinchi navbatda, fuqarolarning siyosiy-huquqiy xabardorligi va madaniyati yuksalib borishiga qulay sharoit yaratadi. Ayniqsa, odatda uncha faol hisoblanmaydigan, jamiyatdagi voqea-hodisalarga bo'yicha o'z fikri, takliflarini har doim ham bildiravermaydigan ehtiyojmand qatlam uchun bunday sharoit muhim hisoblanadi.

Aholining turli ijtimoiy qatlamlari o'rtasida muloqot muhiti rivojlanib borishi natijasida

xoslik fuqarolarni tez birlashtiradi, ijtimoiy masalalarni birgalikda hal qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Shuning uchun fuqarolik jamiyati institutlari mahalliy miqyosda rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish muhimdir.

So'z fuqarolik jamiyati haqida borar ekan, tabiiyki, bu jabhada yetakchi bo'lgan davlatlar tajribasiga to'xtalib o'tish lozim. Masalan, AQSHda fuqarolik jamiyatining dastlabki institutlari turli uyushmalar, maktablar va turar joylar bo'yicha xavfsizlik va tartibni ta'minlovchi ijtimoiy guruhlar sifatida faoliyat ko'rsatgan. G'arbiy Yevropada esa fuqarolik jamiyati institutlari iqtisodiy sohada o'zini namoyon qilib, yangi va eski tipdagi uyushmalar va korporativ birlashmalar asosida tashkil topgan mustaqil bo-

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarida hamda xalq deputatlari mahalliy Kengashlardagi partiya guruhlar bilan maslahatlashuvlar o'tkazish mexanizmini joriy etish to'g'risidagi taklif muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz.

Zero, ijro etuvchi hokimiyatning aholining manfaatlariga taalluqli, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning eng muhim masalalari bo'yicha xalq vakillari bilan maslahatlashuvi bunday dolzarb masalalar yuzasidan har tomonlama puxta o'ylangan, barcha tarafdorlarning manfaatlariga mos keluvchi qarorlar qabul qilish imkonini beradi hamda xalq hokimiyatchiligi prinsipi ta'laqonli mos keladi.

Buning natijasida aholining turli qatlamlari huquq va manfaatlariga mos, ijtimoiy jihatdan samarali qarorlar qabul qilinishi bo'yicha huquqiy asoslar mustahkamlanadi. Siyosiy partiyalar, ularning deputatlik birlashmalari dasturiy g'oyalardan kelib chiqib, o'z elektorati manfaatlarini himoya qilishga intiladi.

Fikrlar, qarashlar, pozitsiyalar xilma-xilligi ijro hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning sifati oshishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu xalq hokimiyatchiligi tamoyili mustahkamlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalla — noyob demokratik institut

Milliy qadriyatlarga asoslangan mahalla xalqimizning turmush tarzini ifoda etuvchi, ruhiy-ma'naviy ehtiyoji, mafkurasini, tafakkuri, insonlarning o'zaro qo'shniqlik aloqalari, oilaviy munosabatlarni shakllantiruvchi ma'naviy-ma'rifiy maskan, serqirra ijtimoiy tuzilmadir.

Mahalla o'zining ta'sir ko'rsatish usullari orqali inson huquqlarini himoyalash, fuqarolik jamiyatining muhim elementi sifatida katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda mamlakatimizda 10 mingga yaqin o'zini o'zi boshqarish organi, ya'ni mahallalar fuqarolarimizning ijtimoiy munosabatlardagi ishtirokining barcha jabhalarini qamrab olgan.

Xususan, fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini ta'minlash, davlat organlari faoliyatini ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishga ko'maklashish (bag'rikenglik, mehr-oqibat, hashar, o'zaro yordam, muruvvat, hamjihatlik kabi milliy qadriyatlarini saqlab qolish va keyingi avlodlarga yetkazish, oilalardagi ma'naviy muhitni mustahkamlash) shular jumlasidandir.

Alohida ta'kidlash joziki, nomzod dasturida barcha yo'nalishlarda ilgari surilgan taklif-tashabbuslar bir-birini to'ldiradi, va albatta, ijtimoiy davlatchilik konsepsiyasiga har tomonlama muvofiq keladi.

Shulardan kelib chiqqan holda, saylovchilarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovda Xalq demokratik partiyasidan nomzod Ulug'bek Inoyatovni qo'llab-quvvatlashga chaqiramiz!

Hech birimiz befarq bo'lmasligimiz, konstitutsiyaviy huquqlarimizdan foydalanishda qat'iy fuqarolik pozitsiyamizni ko'rsatishimiz, davlatimiz ravnaqi, yurtimiz kelajagi uchun Prezident saylovda faol ishtirok etishimiz zarur.

Chunki mahalla nafaqat fuqarolar, balki oilalar, turli soha vakillari o'rtasida ijtimoiy muloqot muhitini mustahkamlash imkoniyatlariga ham ega. Kim vaqtincha ishsiz, nega ishsiz, uning mehnat faoliyatiga qiziqishi, ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun qanday choralar ko'rish mumkinligi mahalla doirasida tezroq hal etilishi mumkin.

Yana ta'kidlash kerakki, mahalla instituti davlat hokimiyati idoralari faoliyatini ustidan jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirish, shu orqali turli ijtimoiy dasturlar sifati bajarilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishda beqiyos imkoniyatlarga ega. Bitta hudud miqyosidagi har bir mahallada jamoatchilik nazorati faol yo'lga qo'yilgan mahalliy ijro hokimiyati faoliyatida mas'uliyat va hisobdorlik ortadi.

Ko'rinib turibdiki, nomzodimiz Saylovoldi dasturidagi muhim g'oyalarning amalga oshirishi, elektorat manfaatlarini samarali himoya qilinishida mahalla institutining ahamiyati beqiyosdir.

Yoshlar — fuqarolik jamiyatining tayanchi

Mamlakatimizda ilg'or, demokratik me'yorlarni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy munosabatlarga keng va faol tatbiq etishda yoshlar muhim o'rin tutadi.

Shuning uchun Xalq demokratik partiyasidan Prezidentlikka nomzod dasturida xalq hokimiyatchiligini mustahkamlashda yoshlar masalasiga ham e'tibor qaratilgan. Xususan, dasturda salohiyatli yoshlar siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari tizimida faol ishlashini rag'batlantirish muhimligi ta'kidlanadi.

Darhaqiqat, yoshlar barcha davrda jamiyatning faol qatлами sifatida e'tirof etilgan. Shu bois, bu qatlami doimiy rag'batlantirish va o'z qo'llab-quvvatlash muhim.

Navqiron avlod vakillari manfaatini boshqa ko'pchilik qatlamlar vakillari manfaatiga qarshi qo'ymasdan, umummilliy manfaat bilan uyg'unlashtirish yoshlar siyosatining o'zagi hisoblanadi. Qayd etish joziki, yoshlar masalalariga alohida e'tibor qaratish va ularning muammolarini o'rganish mamlakatni yanada yuksaltirishga zamin yaratadi.

Jamiyatni isloh qilishning hozirgi bosqichida yoshlarda o'z bilimlarini mustaqil boyitish, professionalizm va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy ehtiyojlarini o'rganish va bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, g'ayrat-shijoatidan mamlakatimizning umummanfaati yo'lida foydalanish, ijtimoiy faolligini oshirish bugun har qachongidan dolzarbdir.

Bir so'z bilan aytganda, yoshlar — el-yurt ertasini belgilab beruvchi kuch. Xalq hokimiyatchiligiga asoslangan boshqaruvni qaror topirish, fuqarolik institutlarining davlat va jamiyat hayotidagi ishtirokini kengaytirish, ijtimoiy tenglik hamda ijtimoiy barqarorlik asosi bo'lgan demokratik qadriyatlar ustuvorligi ko'p jihatdan aholining katta qismini tashkil etuvchi yoshlarimizga bog'liq.

Umuman, nomzodning Xalq demokratik partiyasi siyosiy platformasiga muvofiq shakllantirilgan Saylovoldi dasturidagi asosiy taklif va tashabbuslarning samarali amalga oshirishi mamlakatimizda xalq hokimiyatchiligini mustahkamlash, fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Nomzod dasturining asosiy g'oyalardan bo'lgan huquqlar va imkoniyatlar tengligini ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat'i nazar, barcha insonlarning davlat boshqaruvida erkin, faol ishtirok etishini kafolatlash fuqarolik jamiyati institutlarining samarali faoliyat yuritishiga chambarchas bog'liqdir.

Alohida ta'kidlash joziki, nomzod dasturida barcha yo'nalishlarda ilgari surilgan taklif-tashabbuslar bir-birini to'ldiradi, va albatta, ijtimoiy davlatchilik konsepsiyasiga har tomonlama muvofiq keladi.

Shulardan kelib chiqqan holda, saylovchilarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovda Xalq demokratik partiyasidan nomzod Ulug'bek Inoyatovni qo'llab-quvvatlashga chaqiramiz!

Hech birimiz befarq bo'lmasligimiz, konstitutsiyaviy huquqlarimizdan foydalanishda qat'iy fuqarolik pozitsiyamizni ko'rsatishimiz, davlatimiz ravnaqi, yurtimiz kelajagi uchun Prezident saylovda faol ishtirok etishimiz zarur.

Sherali MAMADETSOYEV, Baxtiyor TASHEV, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan Prezidentlikka nomzodning ishonchli vakillari

O'ZBEKISTON XALQ DEMOKRATIK PARTIYASIDAN PREZIDENTLIKKA NOMZOD ULUG'BEK INOYATOVGA OVOZ BERING!

YANGI O'ZBEKISTON RUHI

XALQ DIPLOMATIYASI — TASHQI SIYOSATNING MUHIM MODEL

O'ZBEKISTONDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTINING XALQ DIPLOMATIYASI MARKAZI DIREKTORI QOBILJON SOBIROV BILAN SUHBAT

Boshlanishi 1-betda

Rasmiy diplomatiyaning ajralmas qismi va uning muhim elementiga aylanib borayotgan xalq diplomatiyasi so'nggi yillarda tobora faollashmoqda. Fuqarolik jamiyati va xorijiy mamlakatlarda jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikni o'z ichiga olgan xalq diplomatiyasi, davlatning xalqaro aloqalarini kengaytirishda noyob vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Xalq diplomatiyasi faoliyati — jamoat tashkilotlari va birlashmalari, birodarlashgan shaharlar darajasidagi aloqalar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar va xalqaro nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Bunday tuzilmani tashkil etish zarurati Hindiston va Pokiston SHHTning doimiy a'zolari sifatida qo'shilgandan so'ng yanada oshdi, zero tashkilot Yevroosiyo-yonig Xitoy, Rossiya, Hindiston va Islom sivilizatsiyalari kabi bir necha yirik tamaddun markazlarini birlashtiruvchi makonga aylandi.

Bu sivilizatsiyalar nafaqat betakrorligi va an'anaviyligi bo'yicha ba'zi umumiy xususiyatlarga ega, balki urf-odatlar, qadriyatlar va turli madaniy amaliyotlar bilan ham ajralib turadi. Agar SHHT kabi xalqaro maydondagi tashkilotlar, avvalo, siyosiy va iqtisodiy pragmatizmni ko'zlab ish yuritsa, xalqlar ko'proq qalban yaqinlashadi, bu esa davlat qurilishi va boshqaruvida g'oyalarni hamda mafkuraviy tuzilmalar o'rnini belgilab beradi.

Rasmiy Toshkent SHHT faoliyatidagi muvaffaqiyatlarining asosiy kafolati xalqlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash, davlatlararo o'zaro tushunishni chuqurlashtirish, uyg'un manfaatlarini inobatga olish, tenglik ekanini ta'kidlab keladi. Bu maqsadlarga erishishning eng oson yo'li esa xalq diplomatiyasidir.

Shubhasiz, SHHT roli va nufuzining yanada mustahkamlanishi a'zo davlatlarning "Shanxay ruhi"ga, tashkilot tamoyillari va qadriyatlariga sodiqligiga bog'liq bo'ladi.

SHHT makonida yashayotgan xalqlar manfaatli yo'lida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, madaniy xilma-xillikni saqlash va targ'ib qilish, mintaqaning madaniy va tabiiy merosini o'rganish sohasidagi hamkorlik xalqlar o'rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirish va kengaytirishga hissa qo'shish shubhasizdir.

O'zaro ishonchga asoslangan xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish, dunyo mamlakatlari, xususan, qo'shni davlatlar bilan tinch-totuvlik tamoyili asosida muloqot qilish, faqat davlatlararo emas, balki xalqlarning keng qatlamli o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni ham kengaytirish bugungi zamonning asosiy talablaridan biridir.

Xalq diplomatiyasi turli davlatlar xalqlarining o'zaro munosabatlarini yanada yaxshilashga qaratilgan, ikkinchi tomondan esa, har bir davlat xalqlarining o'zaro ichki turmush tarzida ham o'zaro birdamlikni ulug'lovchi, yuraklarni ilhomlantiruvchi tuyg'udir. U nafaqat xalqlar yaqinlashuvini, balki turli millat va elatlarning madaniy uyg'unlashuvi, tinchlik va birodarlikka targ'ib etuvchi vositadir.

— **Gapni uzoqdan boshlashga hojat yo'q. O'zbekistonda SHHTning Xalq diplomatiyasi markazi faoliyat boshlaganiga besh yil bo'ldi. Qisqa davr. Lekin savol tug'ildi: markazning o'tgan vaqt mobaynidagi faoliyatini qanday baholaymiz? O'zbekistondagi markaz nimalarga erishdi?**

— Darhaqiqat, O'zbekistonda SHHTning Xalq diplomatiyasi markazi faoliyat boshlaganiga besh yil bo'ldi. Bu muddat mobaynida markaz o'z hamkorlari, Tashkilotga a'zo davlatlardagi nodavlat tashki-



lotlar, diplomatik korpus vakillari, jamoat tashkilotlari, vazirlik va idoralar, milliy madaniyat markazlari va do'stlik jamiyatlari o'rtasidagi haqiqiy muloqot maydoniga aylandi.

Markaz faoliyatining asosiy vazifa va yo'nalishlari etib SHHT mamlakatlari o'rtasida o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnihilikni, millatlararo va dinlararo totuvlikni mustahkamlash, Tashkilotga a'zo davlatlar bilan madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish belgilangan.

Markazning maqsad va vazifalari SHHT mamlakatlarining fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan, yoshlar va xotin-qizlar tashkilotlari o'rtasida do'stona hamkorlik muhitini qurish uchun shart-sharoit yaratishdir.

O'zbekistonda SHHTning Xalq diplomatiyasi markazi faoliyat tashkilotiga a'zo davlatlarning nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolari o'rtasida madaniy-gumanitar, ilmiy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirish, kuzatuvchi davlatlar va muloqot bo'yicha sherik maqomidagi hamkorlarni jalb etgan holda sivilizatsiyalararo muloqotni faollashtirishga, shuningdek, SHHT mintaqasi xalqlari o'rtasidagi do'stona aloqalarni mustahkamlash, o'zaro ishonch, manfaat, tenglik, maslahatlashuv, madaniyatlar xilma-xilligiga hurmat va birgalikda rivojlanish istagini o'z ichiga olgan "Shanxay ruhi" tamoyillarini faol targ'ib qilishga qaratiladi.

Markazning xalqaro hamkorligi haqida gapirganda, Belarus tinchlik fondi, Hindiston xalqaro munosabatlar kengashi, Qozog'iston xalqi Assambleyasi va "Qozog'iston fuqarolik alyansi", Xitoyning yaqin qo'shnihilik, do'stlik va hamkorlik bo'yicha qo'mitasi va Xitoy xalq diplomatiyasi uyushmasi, Qirg'iziston Ipak yo'li va SHHT davlatlari integratsiya markazi va Qirg'iziston xalq assambleyasi, Pokiston strategik tadqiqotlar hamda Pokiston tinchlik va diplomatiya institutlari, Yevroosiyo va Rossiya xalqlari Assambleyasi, Gorchakov nomidagi Rossiya xalq diplomatiyasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, Rossiyadagi SHHTning Xalq diplomatiyasi milliy markazi, Rossiya va O'zbekiston Do'stlik jamiyati hamda Tojikiston tinchlik va hamkorlik markazi bilan aloqa o'rnatish va ilmiy, madaniy-gumanitar sohalarida qo'shma tadbirlar o'tkazish ustida ishlar davom etmoqda.

Faqat 2022-yilning o'zida Markaz tomonidan 84 ta yirik tadbir o'tkazildi. Shuningdek, o'z faoliyat davomida Markaz SHHT xalqlari madaniyati haqidagi bilimlarni yanada chuqurlashtirish, xalqlar o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlash, madaniyatlar rang-barangligini asrash kabi muhim maqsadlarga qaratilgan turli davra suhbatlari, ilmiy-amaliy konferensiyalar, ijodiy kechalar amalga oshirilmog'ida.

— **Mulohazalaringizdan anglashiladiki, O'zbekistonning SHHT makonidagi o'rni va nufuzi keyingi yillarda anchayin oshib bormog'ida. Shu o'rinda bizda ham bir fikr paydo bo'lmoqda. Umuman, SHHTning tashkil topish sabablari va asoslari nimada? Va eng muhimi, bu Tashkilotda nufuzga ega bo'lish nimanani anglatadi?**

— Jahon siyosatining muhim subyektiga aylanib borayotgan Shanxay hamkorlik tashkiloti nufuzini oshirishda o'z faoliyatini mazkur xalqaro tashkilot bilan birgalikda tashkil etayotgan yigirma olti davlat qatorida O'zbekistonning ham munosib hissasi bor. Qat'iy irodaga asoslangan faol ishtirok natijasida mazkur xalqaro tashkilot faoliyati samaradorligini oshirish, uning maqsad, vazifalari va asosiy tamoyillariga mos qaror qabul qilish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari davr talabiga hamnafas takomillashib bormog'ida. Uzoqni o'ylab, puxta reja asosida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar

ishonch, do'stlik va yaxshi qo'shnihilikni mustahkamlash, ular o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar, energetika, transport, ekologiy va boshqa sohalarida samarali hamkorlikni kuchaytirish, mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashdan iborat.

Ushbu tashkilot a'zosi va ta'sislaridan biri sifatida O'zbekiston SHHT doirasida o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish tarafdori. Bugungi kunda mamlakatimiz SHHTning ko'p qirrali savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikdagi va terrorizm, ekstremizm, noqonuniy narkotrafik, transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash kabi sohalaridagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash orqali uning faol ishtirokchisi bo'lib harakat qilmoqda.

Yana bir muhim jihat: SHHT davlatlari nafaqat dunyodagi siyosiy vaziyat tufayli, balki ming yillar davomida savdo-sotiq, madaniy-ma'naviy qadriyatlar almashinuvi markazi hisoblangan Buyuk ipak yo'li

birlashtirgan chuqur tarixiy va madaniy aloqalar orqali o'zaro bog'liq.

SHHTga O'zbekiston raislik etgan (2003-2004, 2009-2010, 2015-2016 va 2021-2022-yillar) davrlarda tashkilotning xalqaro maydondagi nufuzi va rolini mustahkamlash bo'yicha 80 dan ortiq samarali tashabbuslar ilgari surilgan.

E'tiborlisi shundaki, mazkur takliflarning barchasi tashkilotga a'zo davlatlar tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilindi va ma'qullandi.

Shuni alohida aytib o'tmoqchiman-ki, 2022-yil 12-sentabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevning Shanxay hamkorlik tashkiloti Samarqand sammiti oldidan chop etilgan maqolasida ko'p tomonlama faoliyatga asoslangan eng yosh institutlardan biri — Shanxay hamkorlik tashkilotining turlicha madaniy-sivilizatsion qarashlari, o'z tashqi siyosiy yo'nalishlari va milliy taraqqiyot model-lariga ega mamlakatlarni birlashtira olgan o'ziga xos davlatlararo tuzilma ekanini ta'kidlangan edi.

Yangi O'zbekiston ilgari surgan takliflar dunyoda, shu jumladan, SHHT mintaqasida tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

— **Juda yaxshi. Yana xalq diplomatiyasiga doir mavzuga qaytsak. Bu yil O'zbekistonda katta konstitutsiyaviy islohotlar amalga oshirildi. Xalqimizning siyosiy xohish-irodasi bilan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni qabul qildik. Bir so'z bilan aytganda, milliy taraqqiyotimizning besh ustuniga asos soldik. Bu — suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida rivojlanish kon-**

stitutsiyasidir. Shu ma'noda, aytgunchi, yangilangan Konstitutsiyamizdagi tamoyillar O'zbekistonda xalq diplomatiyasi rivojiga qay darajada ta'sir o'tkazadi?

— Ushbu savolning berilishi juda o'rini bo'ldi, deb o'ylayman.

Zero, referendum nafaqat joriy yilning, balki so'nggi yillardagi eng muhim siyosiy voqeelik hisoblanadi. Yangilangan Konstitutsiya yurtimizda amalga oshirilgan barcha islohotlarning eng yuqori cho'qqisi — oliy darajadagi kafolat bosqichi, xalq ovozi — referendum orqali kiritilgan o'zgarish va qo'shimchalarni keng ko'lami islohotlarning huquqiy negizi sifatida talqin etish mumkin. Bu mubolag'a emas, yurtimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar tahlil qilinsa,

sig'a tayanish yoxud mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash, atrof-muhit musaffoligini saqlash xalq diplomatiyasi ustuvor yo'nalishlari uchun asosiy tayanch tamoyillar bo'lib hisoblanadi.

Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsipi va nomenklatura asoslangan holda, O'zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarini hamkorlik, o'zaro qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirish, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli O'zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta'minlash tamoyillari esa markazimiz zimmasiga yuklangan asosiy vazifalar bilan to'laig'icha hamohangdir.

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizga xalq diplomatiyasi nazaridan qaraganda bir necha muhim jihatlarni kuzatish mumkin.

Avvalo, mazkur jarayonni amalga oshirishda xalqimizning bevosita va to'laqonli ishtirok etganini oqlash kerak. Aynan yurtdoshlarimizning konstitutsiyaviy islohotlarga befarq emasligi, bevosita o'zi va o'zi saylagan vakillik organlari orqali yurt obodligi va el farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi, qadriyatlarini ulug'lovchi huquqiy normalarni talagan alohida e'tiborga molik muhim omildir.

Bu o'rinda xalqchilikni anglash uchun quyidagi raqamlarga e'tibor berish lozim. Konstitutsiyaviy o'zgarishlar jarayonida aholi tomonidan 220 mingdan ortiq takliflar bildirilgan. Jumladan, konstitutsiyaviy o'zgarishlar ilk loyihasini shakllantirish chog'ida fuqarolardan kelib tushgan 60 mingdan ziyod taklifning har to'rttasidan ittisi loyihadan joy olgan.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo'yicha o'tkazilgan referendumda ovoz berish byulleteniga kiritilgan jami 19,7 million yurtdoshimizning 16,7 millioni, ya'ni 84,5 foizi ishtirok etgan, ularning 15 millioni — 90,2 foizi konstitutsiyaviy qonun loyihasini qo'llab-quvvatlagan.

Xalq diplomatiyasi markazi SHHT doirasida faoliyat yurituvchi xalqaro tashkilot ekanini inobatga olinsa, Konstitutsiyoning O'zbekiston tashqi siyosatiga oid 17- va 18-moddalariga to'xtalib o'tish joiz.

Konstitutsiyaning "Tashqi siyosat" deb nomlanuvchi IV bob 18-moddasi bilan to'ldirildi. Xususan, ushbu muddada quyidagi yangi norma aks etgan: "O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarini har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi".

Ishonchim komilki, xalq diplomatiyasi institutlari dunyo mamlakatlari mentalitetini anglash, yaxshi qo'shnihilik, do'stlik va hamkorlikni yanada mustahkamlashga hissa qo'shish uchun yaxshi asos bo'lib xizmat qilmoqda. Dunyo xalqlari manfaatli yo'lida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, madaniy xilma-xillikni saqlash va targ'ib qilish, turli xalqaro tadbirlar doirasida mintaqaning madaniy, tabiiy merosini o'rganish sohasidagi hamkorlik esa o'zaro aloqalarni yanada rivojlantirish va kengaytirishga yordam beradi.

— **"Yangi O'zbekiston" muxbiri Ulug'bek ASROROV suhbatlashdi.**



“ SHHT DAVLATLARI NAFAQAT DUNYODAGI SIYOSIY VAZIYAT TUFAYLI, BALKI MING YILLAR DAVOMIDA SAVDO-SOTIQ, MADANIY-MA'NAVYI QADRIYATLAR ALMASHINUVI MARKAZI HISOBLANGAN BUYUK IPAK YO'LI BIRLASHTIRGAN CHUQUR TARIXIY VA MADANIY ALOQALAR ORQALI O'ZARO BOG'LIQ.

sepsiyasidir. Shu ma'noda, aytgunchi, yangilangan Konstitutsiyamizdagi tamoyillar O'zbekistonda xalq diplomatiyasi rivojiga qay darajada ta'sir o'tkazadi?

— Ushbu savolning berilishi juda o'rini bo'ldi, deb o'ylayman.

Zero, referendum nafaqat joriy yilning, balki so'nggi yillardagi eng muhim siyosiy voqeelik hisoblanadi. Yangilangan Konstitutsiya yurtimizda amalga oshirilgan barcha islohotlarning eng yuqori cho'qqisi — oliy darajadagi kafolat bosqichi, xalq ovozi — referendum orqali kiritilgan o'zgarish va qo'shimchalarni keng ko'lami islohotlarning huquqiy negizi sifatida talqin etish mumkin. Bu mubolag'a emas, yurtimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar tahlil qilinsa,

sig'a tayanish yoxud mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash, atrof-muhit musaffoligini saqlash xalq diplomatiyasi ustuvor yo'nalishlari uchun asosiy tayanch tamoyillar bo'lib hisoblanadi.

Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsipi va nomenklatura asoslangan holda, O'zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarini hamkorlik, o'zaro qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirish, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli O'zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta'minlash tamoyillari esa markazimiz zimmasiga yuklangan asosiy vazifalar bilan to'laig'icha hamohangdir.

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizga xalq diplomatiyasi nazaridan qaraganda bir necha muhim jihatlarni kuzatish mumkin.

Avvalo, mazkur jarayonni amalga oshirishda xalqimizning bevosita va to'laqonli ishtirok etganini oqlash kerak. Aynan yurtdoshlarimizning konstitutsiyaviy islohotlarga befarq emasligi, bevosita o'zi va o'zi saylagan vakillik organlari orqali yurt obodligi va el farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi, qadriyatlarini ulug'lovchi huquqiy normalarni talagan alohida e'tiborga molik muhim omildir.

Bu o'rinda xalqchilikni anglash uchun quyidagi raqamlarga e'tibor berish lozim. Konstitutsiyaviy o'zgarishlar jarayonida aholi tomonidan 220 mingdan ortiq takliflar bildirilgan. Jumladan, konstitutsiyaviy o'zgarishlar ilk loyihasini shakllantirish chog'ida fuqarolardan kelib tushgan 60 mingdan ziyod taklifning har to'rttasidan ittisi loyihadan joy olgan.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo'yicha o'tkazilgan referendumda ovoz berish byulleteniga kiritilgan jami 19,7 million yurtdoshimizning 16,7 millioni, ya'ni 84,5 foizi ishtirok etgan, ularning 15 millioni — 90,2 foizi konstitutsiyaviy qonun loyihasini qo'llab-quvvatlagan.


Xalq diplomatiyasi markazi SHHT doirasida faoliyat yurituvchi xalqaro tashkilot ekanini inobatga olinsa, Konstitutsiyoning O'zbekiston tashqi siyosatiga oid 17- va 18-moddalariga to'xtalib o'tish joiz.

Konstitutsiyaning "Tashqi siyosat" deb nomlanuvchi IV bob 18-moddasi bilan to'ldirildi. Xususan, ushbu muddada quyidagi yangi norma aks etgan: "O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarini har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi".

Ishonchim komilki, xalq diplomatiyasi institutlari dunyo mamlakatlari mentalitetini anglash, yaxshi qo'shnihilik, do'stlik va hamkorlikni yanada mustahkamlashga hissa qo'shish uchun yaxshi asos bo'lib xizmat qilmoqda. Dunyo xalqlari manfaatli yo'lida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, madaniy xilma-xillikni saqlash va targ'ib qilish, turli xalqaro tadbirlar doirasida mintaqaning madaniy, tabiiy merosini o'rganish sohasidagi hamkorlik esa o'zaro aloqalarni yanada rivojlantirish va kengaytirishga yordam beradi.

— **"Yangi O'zbekiston" muxbiri Ulug'bek ASROROV suhbatlashdi.**

“YALLA” — 50 YOSHDA

SHONLI YO'L
ZAHMATIva shuhratli
ijod zarqi

Boshlanishi 1-betda

G'oya, tashabbus, ilk qadam va yutuqlar

XX asrning 70-yillari mashhur “Beatles” guruhi dunyo yoshlarining es-hushini o'g'irlagan edi. So'zlarini tushunmasa ham guruh qo'shiqlarini yod olgan va jo'r bo'lib xirgoyi qiladigan avlod shakllandi. Shunday pallada tashkil topgan “Yalla” ansambli milliylikka yo'g'irilgan ijodi, xalqona ohanglari bilan avval o'zbek yoshlari, so'ng uzoz-yaqindagi musiqiya ixlosmandlari dilini zabt eta oldi. Bu shunchaki sodir bo'lmadi.

“Yalla”ning dastlabki a'zolaridan biri Bahodir Jo'rayev bunday eslaydi: “Havaskorlar boshini qovushtirish maqsadida Toshkent viloyati yoshlari orasida 1971-yili vokal-cholg'u ansambllari festivali ko'rigi tashkil etildi. Tanlovda qatnashmoqchi bo'lgan jamoalar orasida yangi tuzilgan guruhimiz boshqalaridan ajralib turardi. Ko'rik-tanlov uchun bironlarning qo'shig'ini maromiga yetkazib kuyilash kamlik qilar, yigitlarning o'z qo'shig'i ham bo'lishi kerak edi. Yosh ansambli “Qizil-qora” hamda “Sizga, yoshlar” qo'shiqlari bilan tanlovda g'olib bo'ldi.

Darhaqiqat, bu dastlabki yutuq edi. Shundan so'ng yigitlar yangi-yangi g'oyalar qanotida uchib yurgan, konsert dasturi tuzib, respublika bo'ylab ijodiy safarlarga chiqishni ham rejalashtirayotgan kezlarda “Allo, biz iqtidorlarni izlaymiz” tanlovida qatnashish taklifi kelib qoladi. Hali ansambliga nom ham qo'yilmagan edi. O'ziga xos noan'anaviy nom topish kerak, degan qarorga kelindi. Teatr va rassomlik instituti o'qituvchisi Anatoliy Qobulov o'zbek xalqining eng jozibali va quvnoq qo'shiqlariga moslab uni “Yalla” deb atash taklifini ilgari surdi.

“Yalla” guruhi dastlab havaskorlik ansambli bo'lgan. Ammo unga e'tibor kattaligi sabab tez orada vokal-cholg'u ansambli maqomini oldi. Guruh yangi bo'lishiga qaramay, rahbariyat va boshqa ijodkorlar e'tiboriga tushdi. “Yalla”ning o'sha paytdagi boshqa guruhlardan farqi, asosan, xalqona, xalq qo'shiqlarini ijro qilayotgani, ularning sharqona ohanglardan iboratligida edi. Repertuari, asosan, xalq og'zaki ijodi — folklor qo'shiqlardan tashkil topgan va unga “Qiz bola”, “Majnun”, “Boychachak”, “Yallama yorim” kabi qo'shiqlar kirgan.

1976-yili guruh o'z safiga Farrux Zokirovni qabul qildi. O'sha yillari “Yalla”ning eng gullagan, shu bilan birga, bir oz ijoddan chekingan kezlari edi. Farrux Zokirov nafaqat guruh a'zosi bo'ldi, balki uning faollaridan biriga aylandi.

Farrux Zokirovning san'atkor bo'lishiga eng ko'p qarshilik ko'rsatgan kishi akasi Botir Zokirov bo'ldi. Chunki u ukasini juda iste'dodli deb hisoblamas, san'atga zo'rma-zo'raki kirib kelishini va o'rta-yona xonanda-yu sozandalor qatoridan joy olishini istamasdi. Biroq bunday bo'lib chiqmadi.

O'sha vaqtda “Yalla”ga badiiy rahbarlik, maslahatchilik qilayotgan Botir Zokirov dastlab ukasining bu qarorini qabul qila olmagan bo'lsa, keyinchalik rozilik berdi. Farrux Zokirovning tashabbuskorligi, tinib-tinchimasligi sabab guruhning so'navotgan yulduzi qaytdan porlay boshladi.

— Bolaligimda ham, hozir ham, xoh atrof-dagilar bilan munosabatda bo'ladimi, xoh professional ijodda “Karim Zokiriyning o'g'ili Barakalla, ota o'g'ili”, degan ta'rif men uchun yuksak baho, — deydi Farrux Zokirov. — Botir akam — ijodiy vijdonim. Doim qo'shiq yozayotganda akam bo'lganida qanday munosabat bildirardi, degan fikr xayolimda turadi. Yigitlik yillarim musiqaga bastalashga moyilligim bor edi. “Shunday qo'shiq yozsamki, Botir Zokirov repertuariga kiritrsa”, deb orzu qilardim. Akam esa eshitib ko'radi-da, “Yo'q, hali bor, pishmagan”, derdi. Shukur,

ko'p fursat o'tmay, shunday baxtga musharraf bo'ldim. 1974-yil “Majnun” qo'shig'ini yozgan bo'lsam, bir yildan keyin “Qo'shiq juda chiroyli chiqibdi, maylimi, men kuyilammi?”, deya so'ragan. O'shanda yuragim yorilib ketay degan. Hozir ham kuchli hayajon bilan eslayman.

Guruh yildan-yilga rivojlanib boshladi. Biroq a'zolarining turli shaxsiy sabablarga ko'ra, tarkibidan asta-sekin ketishi oqibatida “Yalla” yana ijodiy inqiroz yoqasiga kelib qoldi. Ammo uning shunchaki yo'qolib ketishiga yo'l qo'yib bo'lmaz, qandaydir chora ko'rish kerak edi. Shunda Farrux Zokirovga akasi Botir Zokirov guruhga ijodga chanqoq, yuragida o'ti bor, yangilikka intiluvchan yoshlarni jalb qilishni maslahat berdi. Yangi zamon, yangi yo'nalishlar kirib kelayotgan pallada avvalgidek bo'shang holatda ijod qilib bo'lmadi.

1979-yilda “Yalla” guruhi Yaltadagi “Krimskiy zori” festivaliga bordi. Farrux Zokirov o'sha yerda musiqani yaxshi tushunadigan, turli sozlarni bemalol chalaydigan, eng muhimi, “Yalla”ga moliyaviy ko'mak berishi mumkin bo'lgan Rustam Ilyosov bilan tanishib qoldi. Asli toshkentlik, deyarli qo'shni bo'lgan bu ikki shaxsning o'zaro uchrashuvi har

xodimlari kelib, “Yil qo'shig'i” tanloviga nomzodlar qidirishga tushadi. Tabiiyki, “Yalla” ham yaxshi qo'shiqlaridan biri “Uchquduq”ni tayyorlaydi. Ammo ayrim sabablarga ko'ra, uni televideniye orqali ko'rsatish man etiladi. Televideniye xodimlari yozib olgan tasma saqlanib qoladi va “Uchquduq” “Yil qo'shig'i” sifatida e'tirof etiladi. Shundan so'ng u ishchilar shahri Uchquduq madhiyasiga, “Yalla”ning esa navbatdagi “tashrif qog'oziga” aylanadi.

Nafaqat “Uchquduq”, balki O'zbekistonning boshqa shaharlariga atab aytilgan qo'shiqlar ham “Yalla”ni butun mamlakatga tanitdi. Guruhning “Shahrisabz”, “Samarqandning moviy gumbazlari”, “Toshkentim — onam”, “Dor o'ynang” kabi qo'shiqlari ko'tarinkiligi, yorqinligi va samimiyligi bilan ajralib turadi.

— Biz dunyoning turli mamlakatlari shaharlari chirovini ta'riflashga, ko'rk-u tarovatidan hayratlanishga o'rganib qolganmiz, — degan edi interv'yularining birida Farrux Zokirov. — Biroq yonimzdagi ko'rkam go'shalarning qadriga yetmaymiz. O'zgalardan eshitganda esa, ha-ya, deb xijolatomuz hayratga tushamiz. “Yalla” qo'shiqlari esa bizi lol qoldirgan joylar o'z diyorimizda ham borligini eslatib turadi.



tomonlama manfaatlari bo'lib chiqdi. Zero, moliyaviy inqirozga yuz tutgan guruhga bunday yildor suv bilan havodak zarur edi. Guruhga befarq bo'lmagan Rustamga erkin ijod qilishi uchun ijodiy maydon kerak edi. O'zaro kelishuvlar natijasida u “Yalla”ning a'zosi va prod'yuseriga aylandi.

70-yillar oxirida “Yalla” tarkibi to'liq yangilandi, faqat Farrux Zokirov badiiy rahbar sifatida qoldi. Guruhga o'sha damlarda Abbas Aliyev, Alisher To'laganov, Javlon To'xtayev kelib qo'shildi.

“Yalla” va uning “tashrif qog'ozlari”

Guruh yana jonlandi. Yangidan-yangi qo'shiqlar yozilib, konsert ustiga konsert tashkil qilina boshladi. Yangilangan “Yalla”ning ilk qo'shig'i “So'nggi poema” bo'ldi. Robindranat Tagor she'ri, Aleksey Ribnikov musiqasi bilan aytiluvchi ushbu qo'shiq haqiqatan ham muvaffaqiyat dehochasi bo'ldi va u hamon guruh repertuaridan tushmay kelmoqda.

“Uchquduq” ham uzozq yillar muxlislar qalbidan joy olgan qo'shiqqa aylandi. Shoir Yuriy Entin qalamiga mansub ushbu she'rga Farrux Zokirov Zarafshonda bo'lgan gastrol chog'ida favqulodda kuy bastaladi va u o'sha kuni tinglovchilar hukmiga havola etildi.

1980-yilda Moskvadan bir guruh televideniye

Guruhning “Moviy gumbazlar”, “Choyxona”, “Boroda verbyuda”, “Na vostoke” kabi qo'shiqlari ham shuhrat topdi. 1981-yili “Shahrisabz”, 1989-yili esa “Choyxona” qo'shiqlari uchun “Yalla” Butunittifoq mukofoti laureati bo'ldi.

Xalqaro sahnalar zabti

Guruhning shuhrati dunyoning juda ko'plab mamlakatlariga yoyildi, sobiq ittifoq va Sharq musiqasini sevuvchi mamlakatlarning barchasi uni yaxshi tanib va ardoqlay boshladi. “Yalla”, asosan, o'zbek va rus tillarida ijod qilgani sabab sobiq ittifoqda juda tez nom qozondi.

“Yalla”ning sobiq ittifoq bo'ylab gastrollari, ijodiy uchrashuvlari samarali bo'ldi. Ansambli Moskvadagi Olimpiya sport majmuasi, “Dinamo” konsert-sport zali, “Zvyozdny” shaharchasida konsertlar berdi. Sankt-Peterburgdagi “Yubileyniy” sport saroyidagi konserti esa o'n kun davom etdi. Bunday konsertlar tomoshabinlar uchun haqiqiy bayramga aylanib ketar edi.

Ansambli Polshada yosh qo'shiqchilarning “Estrada bahori” festivalida qatnashdi. O'zbekistonlik yigitlar chiqishi lozim bo'lgan konsert dasturi “Muslim Magomayev taqdim etadi” deb nomlangan, ya'ni konsertning asosiy qismi mashhur nonandanning qo'shiqlaridan iborat edi. Negadir Muslim

Magomayev tadbirga kechikadi. Har yomonlikning bir yaxshi tarafi bor, deganlaridek, Magomayevning kechikishi “Yalla”ga sahnada ko'proq kuyilish imkonini beradi. Shundan so'ng ansamblning muxlislari soni keskin ortib ketadi.

Ko'p o'tmay guruh a'zolari “Melodiya” Butunittifoq grammofonga yozish studiyasida bir qancha qo'shig'ini, jumladan, “Andijon polkasi”, “Qiz bola” va yosh xonanda Larisa Kandalova ijrosidagi ikkita qo'shiq yozilgan dastlabki albomni chiqarishga muvaffaq bo'ldi.

Oradan ko'p o'tmay “Yalla” Bolgariya, Rumiya va Germaniyaga ikki oylik safar qildi. Yoshlar va talabalarning Berlindagi jahon festivalida qatnashdi. Festival uchun Yevgeniy Shirayev ataylab ikkita qo'shiq — “Xirosima” va “Yallama yorim”ni yozib berdi. Ansambli festivalning oltin medaliga sazovor bo'ldi. “Yallama yorim” qo'shig'i festivalning eng zo'r qo'shig'i — shlyageri sifatida qayd etildi.

Yoshlarning estetik tarbiyasiga qo'shgan hisasi va yuksak ijodiy yutuqlari uchun 1975-yilda “Yalla”ga “O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jamoa” unvoni berildi. O'sha paytgacha hech bir ansambli ko'plab xalqaro festivallarda qatnashib, muvaffaqiyat qozonmagan va yuqori o'rinlarni egallamagan.

Guruh a'zolari keyinchalik Mo'g'uliston va Vyetnamga safar qilib, dastavval Xanoy milliy opera teatrida, so'ngra markaziy o'yinohda konsert berdi. Vyetnamliklari uni olqishlar bilan kutib oldi va hukumat guruh a'zolarini “Do'stlik” ordeni bilan taqdirladi.

Xorijiy gastrollardan qaytgan “Yalla” yurtimizda bir necha kun, aytish mumkin bo'lsa, hisobot konserti berdi. O'sha konsertdan so'ng yana uzozq gastrollar boshlandi. Bu galgi manzillar Germaniya Demokratik Respublikasi, Bolgariya, Vengriya, Polsha va Chexoslovakiya edi. Bu mamlakatlarga qayta-qayta safarlarga sabab u yerlardagi muxlislar mehri bo'ldi.

O'sha paytlarda “Yalla” guruhi birinchilardan bo'lib xayriya konsertlari uyushtirdi. Samarqandagi Registon maydonida uch oqshom “Barcha zamonlarning choyxonasi” dasturi namoyish etildi. Har kech ulkan maydonga minglab tomoshabinlar yig'ildi. Konsertlardan tushgan mablag' tinchlik hamda nogironlar jam'armalari o'tkazib berildi.

Muvaffaqiyatlarning bosh omili — milliylik

Guruhning ijodiy yo'lga ko'plab san'atkorlar havas qiladi. Ushbu guruh sabab yurtimizda estrada san'ati ancha o'sdi, jahonning ko'plab mamlakatlari aholisi “Yalla” bois, yurtimizni tanidi, ajoyib san'atimiz mavjudligidan xabar topdi, qadriyatlarimiz, milliy an'analimizdan bahra oldi, eng muhimi, qalbini aynan shu guruhga, uning xush xonishlari va nolalariga bog'ladi.

“Yalla” deyilsa, yuragimiz ajib bir iftixor, g'urur tuyg'usiga to'lib ketadi. Guruh dunyoga tanilgan bo'lsa-da, tom ma'noda O'zbekistonni, o'zbek xalqiniqidir. Tug'ilishidan tortib, nomi qo'yilishigacha chin ma'noda xalqonaligi ko'zga tashlanib turadi.

Guruh repertuaridagi qo'shiqlar rang-barang: ular nafaqat janr, qolaversa, yo'nalish jihatidan ham bir-birini takrorlamaydi. Xalqona ohanglarda kuyilgan qo'shiqlari haqiqatan ham nomiga mos: u elning “Yalla”sidir.

Cheksiz mehr ifodasi

Yoshlar nimani va qanday kuyilayotganiga qarab, nimani orzu qilayotganini, qanday yashayotganini, ularni nimaga o'rgatayotganimizni bilib olishimiz mumkin. Farrux Zokirov va “Yalla” ansamblining hayotsevar, zukko san'ati yoshlarga Vatanni, do'stlikni sevish, dunyoni yorug' ranglarda tasavvur qilishni o'rgatadi. Bugungi jahon miqyosidagi keskinlashuv zamonida insonni olijanon ruhda tarbiyalaydi. Axir, san'atning ulug'vor va bosh vazifasi ham shunda-kul!

“Yalla” ansamblining ijodiy jamoasini mukofotlash to'g'risida kuni kecha O'zbekiston Prezidenti imzolagan farmon millionlab musiqqa muxlislari uchun quvonchli xushxabar bo'ldi. Unga ko'ra, “Yalla” ansamblining badiiy rahbari, ustoz san'atkor Farrux Zokirov “EI-yurt hurmati” ordeni bilan, mazkur ansambli sozandarlari Abbas Aliyev, Javlon To'xtayev, Timur Xalikov, ansambli direktori Igor Xalikov “Do'stlik” ordeni bilan mukofotlandi.

Bundan yarim asr muqaddam tashkil etilgan “Yalla” ansambli betakror ijrosi, teran o'zbekona ma'naviyati, xalqimizga, milliyligimizga, sahnaga, muxlislariga muhabbati va sadoqati bois, yillar osha yuksak darajada ijod qilib kelmoqda. Biz jahon musiqqa yulduzlarining qo'shiqlarini har qancha tinglamaylik, ularni olqishlamaylik, baribir ustoz san'atkor, O'zbekiston xalq artisti Farrux Zokirov va “Yalla” ansamblining o'rni bo'lakcha.

Maqolani Prezident farmonida keltirilgan misralar bilan yakunlashni lozim topdik: “O'zining yorqin iste'dodi, yuksak professional mahorati, ko'p yillik samarali ijodiy faoliyati bilan o'zbek estrada san'atini rivojlantirish, uning shon-shuhratini xalqaro miqyosda keng targ'ib etish, xalqlar o'rtasida madaniy aloqalar, o'zaro do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlashga qo'shgan katta hissa, navqiron iqtidor egalari qobiliyatini ro'yobga chiqarish, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash borasidagi alohida xizmatlari uchun...”

Mana, xalqimiz o'z “Yalla”sini nima uchun yaxshi ko'radi!

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DUK

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-746.
44194 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Gulichehra Durdiyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 03:15